

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PALUANOVA GULMIRA JOLIMBETOVNA

**QUYI AMUDARYO DELTASIDA TARQALGAN SICHQONSIMON
KEMIRUVCHILAR (*Rodentia: Nesokia indica, Mus musculus, Microtus
transcaspicus*)NING BIOEKOLOGIYASI VA ULAR BILAN ZAMONAVIY
KURASH USULLARI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Paluanova Gulmira Jolimbetovna

Quyí Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus*)ning bioekologiyasi va ular bilan zamonaviy kurash usullari..... 3

Палуанова Гулмира Жолымбетовна

Биоэкология грызунов (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus*), распространенных в нижнем течении дельты Амударьи, и современные методы борьбы с ними..... 21

Paluanova Gulmira Jolimbetovna

Bioecology of rodents (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus*), common in the lower reaches of the Amu Darya delta, and modern methods of controlling them..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PALUANOVA GULMIRA JOLIMBETOVNA

**QUYI AMUDARYO DELTASIDA TARQALGAN SICHQONSIMON
KEMIRUVCHILAR (*Rodentia: Nesokia indica, Mus musculus, Microtus
transcaspicus*)NING BIOEKOLOGIYASI VA ULAR BILAN ZAMONAVIY
KURASH USULLARI**

03.00.06 - Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/B982 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asenov Gappar

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Xurramov Alisher Shukurovich
biologiya fanlari doktori, professor

Seytnazarov Sulayman Kutlimuratovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «5» *Sentabr* kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№347-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «19» *avgust* kuni tarqatildi.
(2025 yil «19» *avgust* da №5-raqamli reestr bayonnomasi)

M.A.Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d. professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. dotsent

Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d. professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari, cho'llanishning jadallashuvi va tabiiy landshaftlarning kuchli o'zlashtirilishi bioxilma-xillikga, jumladan, hayvonot dunyosiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, so'ngi yillarda antropogentransformatsiyalangan hududlarda qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga, o'rmonchilikka va aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'diradigan omillardan biri, zararkunonda kemiruvchi sutemizuvchilar sonining jumladan, sichqonsimon sutemizuvchilar vakillari miqdorining keskin oshishiga olib kelmoqda. Shu bois, tabiiy va antropogen bosim kuchli bo'lgan hududlarda sichqonsimon sutemizuvchilarni inventarizatsiyalash, tur tarkibining shakllanishini va populyatsiyalarining o'zgargan suniy ekotizimlarga moslashuvchangligini aniqlash hamda ularga qarshi kurash usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda aholi salomatligini saqlash va ularni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash maqsadida, qishloq xo'jaligining barcha sohalarida atrof muhit musaffoligiga putur yetkazmagan holda ekologik toza qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmini keskin oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, aholi salomatligi va qishloq xo'jaligiga zarar keltiruvchi kemiruvchilarning ta'sir ko'lami baholandi va ularga qarshi samarali kurash usullari ishlab chiqildi. So'ngi yillarda kuchli o'zlashtirilgan hududlarda antropogen omillar ta'sirida teriofauna vakillarining baholi turlarining kamayib ketayotganligi bilan birgalikda, zararli turlari populyatsiyalarining ko'payib borayotganligini alohida takidlash lozim. Ayniqsa, arid hududlarida kemiruvchilar (Rodentia) - turkumi vakillarining turli biotoplarning ajralmas komponenti sifatida namayon bo'lishi, agrolandshaftlarda ularning iqtisodiy zarar ko'laminin oshishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, kuchli o'zlashtirilgan hududlarda sichqonsimon kemiruvchilarning tur tarkibini aniqlash, turli landshaftlarda tarqalishini o'rganish, ekologiyasini asoslash, ahamiyatini izohlash va ularga qarshi ilmiy asoslangan kurash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda flora va fauna yaxlitligini asrash, ulardan oqilona foydalanish, tabiatni ayovsiz ekspluatatsiya qilishga chek qo'yish va aholini global fojealardan saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, turli landshaftlarda tarqalgan sutemizuvchilar faunasi aniqlandi, baholi va kamyob turlari muhofaza ostiga olindi, ularning kadastr ma'lumotlar bazasi ishlab chiqildi va asosiy zararli turlariga qarshi zamonaviy kurash usullari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “ ... 79-maqсад: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.” vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, Quyi Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar (*Nesokia indica*, *Mus*

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

musculus, *Microtus transcaspicus*)ning bioekologiyasini asoslash, landshaftlararo tarqalishini aniqlash, ular populyatsiyalari miqdorini boshqarish va ularga qarshi samarali kurash chora tadbirlarini ishlab chiqish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrdagi 408-son “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob‘yektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-yanvardagi 41-son «Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va «2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik sutemizuvchilar xilma-xilligidagi turg‘unlik va o‘zgarish, xususan, kemiruvchilarning populyatsiyaviy bioekologiyasini ekotizim darajada o‘rganish, ular ta‘sirini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari olimlari D.M. Lay (1967, 1975), D.M. Lay vaboshq., (1970), Roberts (1977), H.S. Carolyn (1987), R. Sauvajot vaboshq., (1998), M.A. Stegner (2016), Tucker va boshq., (2018), R. Chirichella va boshq., (2022) M.C. Viteri va E.A. Hadly (2022), Chao Duan va boshq., (2024) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida sutemizuvchilar vakillarining turlar tarkibi, sistematikasi, biologiyasi, ekologik xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar Н.П. Наймов (1955), Э.В. Котенкова, Н.Н. Мешкова, М.И. Шутова (1989), И.М. Громов, М.А. Эрбаева (1995), И.Т. Русаев va boshq. (2012), V.B. Ильяшенко va boshq. (2015), Н.А. Щипанов (2019), А.Н. Хайсарова (2020), Э.Я. Фрисман va boshq. (2022), Н.В. Цапко (2022), Ю.К. Надезда va boshq., (2024) tadqiqotlarida keltirilgan.

O‘zbekistonda sutemizuvchilar xilma-xilligi, sichqonsimon kemiruvchilarning bioekologiyasiga va ularga qarshi kurashishga oid tadqiqotlar P.A. Beltishev (1941), I.S. Soldatkin (1955), M.U. Cagitov (1961), G.I. Ishunin (1961), M.Paluaniyazov (1970, 1990), T.Z. Zaxidov (1971), V.A. Moiseev (1990), G.Asenov va boshq., (1999, 2014, 2015), R. Reymov (2001), S.K. Seytnazarov (2002), yaqin yillarda esa Janubiy Orolbo‘yi, Qizilqumning Shimoli-G‘arbiy qismi va Quyi Amudaryo deltasi hududlaridagi sutemizuvchilarning xilma-xilligi, bioekologiyasi, tarqalishi, son

dinamikasi va ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar G.Asenov va boshq., (2014, 2015), G.N. Utemuratova (2018, 2024), U.B.Shaniyazov (2020), B.Dj.Allamuratov (2022), R.M.Esimbetov (2022), M.G'.Matrasulov (2023), M.T. Tlegenov (2023) ishlarida keltirilgan.

Biroq, ushbu tadqiqotlar bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatila boshlagan suv tanqisligi sharoitida mavjud hayvonlar sonining o'zgarishi, hududiy joylashuvi va miqdoriy jihatlari bo'yicha to'liq ma'lumotlarni yoritib bera olmaydi. Shu sababli ham, Quyi Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilarning ayrim turlarining bioekologiyasini o'rganish, ularga qarshi kurash usullarini takomillashtirish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika instituti "Zoologiya, odam morfofiziologiyasi va uni o'qitish metodikasi" kafedrasining ilmiy tadqiqot rejasining "Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida va uning to'qay agrolandshaft zonasida sutemizuvchilar faunasining biologik xilma-xilligiga antropogen omillarning ta'sirini va unda tarqalgan kemiruvchi turlarining tarqalish, joylashish komplekslarining son dinamikasi o'zgarishlarining hozirgi ekologik holati va ularning karantin, o'lat, o'ta xavfli kasalligini tarqatishdagi ahamiyatini baholash" mavzusi (2016-2021) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Quyi Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus*) ning bioekologiyasini asoslash, tarqalish xususiyatlarini va ahamiyatini ochib berish, ularga qarshi zamonaviy kurash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Quyi Amudaryo deltasi to'qay va agrolandshaftlaridagi Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni va Kaspiy orti dala sichqonining tarqalish xususiyatlarini ochib berish;

sichqonsimon kemiruvchilarning mavsumiy son dinamikasini va ko'payish xususiyatlarini ochib berish;

to'qay va agrolandshaftlardagi sichqonsimon kemiruvchilarning o'simliklar bilan trofik aloqalarini baholash;

tadqiqot uchun tanlangan turlarning tabiat balansdagi va kasallik tarqatishidagi hamda qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini ochib berish;

hudud landshaftida ushbu turlarning ahamiyatini o'rganish va ular bilan zamonaviy kurash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti: Quyi Amudaryo deltasida tarqalgan Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni va Kaspiy orti dala sichqoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni va Kaspiy orti dala sichqonining bioekologiyasi, tarqalishi, ahamiyati va ularga qarshi kurash choralarini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida teriologik, zoologik, ekologik, biometrik va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Quyida Amudaryo deltasi to‘qay va agrolandshaftlaridagi Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni va Kaspiy orti dala sichqonining landshaftlararo tarqalishi tahlil qilingan;

ilk bor Kaspiy orti dala sichqonining bioekologik xususiyatlari tavsiflangan;

Quyida Amudaryo deltasida tarqalgan *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus* turlarining son dinamikasidagi o‘zgarishlari va ularning ko‘payish biologiyasi ochib berilgan;

to‘qay va agrolandshaftlardagi sichqonsimon kemiruvchilarning trofik aloqalari va ahamiyati ochib berilgan;

sichqonsimon kemiruvchilar keltiradigan zararining oldini olish va ular bilan zamonaviy kurash usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashash muhitining o‘zgaruvchan sharoitida, to‘qay va madaniy antropogen ta‘siridagi kemiruvchilarning tur tarkibidagi, son miqdoridagi o‘zgarishlari hisobga olinib, ularga qarshi samarador kurash usullari ishlab chiqishda ularning nozik ekologik jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan va ishlab chiqish nazarda tutilgan. Bu masalaga to‘qay atrofi biotoplarning faunistik yashash sharoiti, son sifati hisobga olinib, vaqtinchalik yashash joyi sifatida baho berilgan.

Qishloq xo‘jalik boshqolli-don va dukkakli ekin maydonlari, to‘qayzorlar, texnik ekinlar (g‘o‘za, beda), sabzavot-poliz ekinlari, bog‘ maydonlarida yashovchi kemiruvchilarning zararli turlari, miqdori, ularning pishiqchilik, yig‘im-terim mavsumlaridagi zararlari hisobga olingan va zarar miqdoriga aniqlik kiritilgan. Ularga qarshi kurash olib borish usullari, vaqti o‘rganilganligi ko‘rsatilgan tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatli tadqiqot hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada zamonaviy tadqiqot usullarining qo‘llanilganligi hamda ilmiy yondoshuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, ularning etakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘qay va agrolandshaftlardagi Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni va Kaspiy orti dala sichqonining tarqalish xususiyatlari, qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, o‘simliklar bilan trofik aloqalari hamda ularning bioekologik xususiyatlarini ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma‘lumotlar asosida Quyida Amudaryo deltasidagi sichqonsimon kemiruvchilarni biologik monitoring qilish va biologik resurslarni saqlashda, antropogen bosim hududlarida tarqalgan Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni va Kaspiy orti dala sichqonlari tomonidan tarqaladigan kasalliklarning oldini olish va ular bilan zamonaviy kurash usullarini takomillashtirish hamda ular samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyi Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus*)ning bioekologiyasi va ular bilan zamonaviy kurash usullari yuzasidan olingan ilmiy natijalari asosida:

Quyi Amudaryo deltasining to‘qay va agrolandshaftlarida tarqalgan Plastinka tishli kalamush, uy sichqoni, Kaspiy orti dala sichqoni sonining hozirgi holati, ekologik sharoitlarda tarqalishi, joylashishi, ko‘payish biologiyasidagi o‘zgarishlar hamda biologik resurslarni saqlash va muhofaza qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 26-yanvardagi 01/18-2-283 son ma‘lumotnomasi). Natijada, sichqonsimon kemiruvchilar populyatsiyalari holatini baholash va saqlab qolish imkonini bergan;

Quyi Amudaryo deltasining tabiiy hududlarida, uning atrofidagi aholi turar joylarida, omborxonalarida va ekin maydonlarida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilarning bioekologiyasi, ko‘payishidagi nasldorligi o‘rganilgan va uning turli yuqumli kasalliklarni tarqatishdagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilinib, olingan ilmiy va amaliy natijalar o‘rganilgan hududning turli qismlarida istiqomat qilayotgan, faoliyat olib boradigan har xil soha vakillari foydalanishi uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 24-yanvardagi 01/383 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘rganilayotgan sichqonsimon kemiruvchilar populyatsiyasi, bioekologiyasi o‘rganilib aniq ma‘lumotlar asosida monitoring qilish hamda ushbu turlarning turli yuqumli kasalliklarni saqlashdagi va tarqatishdagi ahamiyatini o‘rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Quy Amudaryo deltasida tarqalgan kemiruvchilarning o‘rganilganlik holati” deb nomlangan birinchi bobida to‘qay va ekishlik zona ekosistemi biotoplarning o‘rganilganlik holati hamda kemiruvchi hayvonlar, xususan, sichqonsimon kemiruvchilar bo‘yicha Respublikamiz sharoitida olib borilgan tadqiqotlarning sharhi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Amudaryo deltasining sernam hududlarini turli landshaftlardan tashkil topganligi hamda faunasining xilma-xil ekanligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga oid adabiyot ma‘lumotlari batafsil bayon etilgan.

“Quy Amudaryo deltasining tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va usullari” deb nomlangan ikkinchi bobi uch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim “To‘qay ekotizimining hozirgi landshaftli-ekologik holatlari” deb nomlangan. Ushbu bo‘limda biologik xilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish masalalariga ham so‘nggi yillarda mamlakatimiz tomonidan diqqat qaratilayotganligi, mana shu kabi olib borilayotgan samarali ishlarda to‘qay ekotizimining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishda Amudaryo deltasida joylashgan to‘qayzorliklarning hozirgi landshaftli-ekologik holatlari haqida ma‘lumotlar bayon qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining to‘qay jamg‘armasi maydonlari, to‘qayzorliklar boy biologik va rekreatsionaviy resursiga ega joy sifatida o‘rganilgan hamda olib borilgan kuzatishlar tahlili asosida to‘qay ekosistemi hududi 3 ta tipga ajratilgan. Quy Amudaryo davlat biosfera rezervati ekosistemasining flora va fauna kompleksi qisqacha tadqiq qilinishi natijasida keltirilgan ma‘lumotlar hisobga olingan holda ekologik tavsif berilgan.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limida “Ekishlik zonasini o‘zlashtirilishi va rivojlantirishning zamonaviy xususiyatlari” keltirilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekishlik zonasi Amudaryoning ikki bo‘yida joylashganligi, uning maydonining kengayishi uzoq rivojlanish tarixga ega ekanligi, bu hududda tarqalgan hayvonot va o‘simlik dunyosi juda ko‘p mamlakatlar tadqiqotchi olimlarning nazariga tushgan va qiziqishini uyg‘otganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.


Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekishlik zonasi maydonlari, ularning o‘zlashtirilishi va rivojlantirishning zamonaviy xususiyatlari, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda faqatgina ozuq-ovqat muammosi emas, uni kompleksli rivojlantirishga qaratilgan choralar hisoblanibgina qolmasdan, barcha tirik mavjudotlar (shuning ichida inson birinchi o‘rinda) uchun, Respublikadagi og‘ir ekologik holatda ham biologik xilma-xillikni, ayniqsa ularning zaiflanib borayotgan genofondini saqlab qolishga, muhofaza qilishga qaratilgan g‘amxo‘rlik haqidagi ma‘lumotlar batafsil yoritilgan.

Ushbu bobning uchunchi bo‘limida “Tadqiqot materiallari va usullari” keltirilgan. Dissertatsiya materialini yig‘ish uchun o‘tkazilgan monitoring tadqiqot ishlari va kuzatishlari G.A.Novikovning (1953) «Полевые исследования по экологии наземных позвоночных», G.A.Asenov, M.A.Jumanov, Ya.I.Ametov, I.M.Arepbaevlarning “Yer usti umurtqali hayvonlarini dala sharoitida tadqiq qilish usullari” (2020) ilmiy manbalarida yoritilgan metodik talablarga muvofiq olib borildi.

Tadqiqot uchun tanlangan kemiruvchilar turkumiga kiruvchi - Plastinka tishli kalamush (*Nesokia indica* Gray, 1830) uy sichqoni (*Mus musculus*), Kaspiy orti dala sichqoni (*Microtus transcaspicus*)ning son dinamikasini tadqiq qilishda O‘lat kasalligiga

qarshi profilaktikasi va Sog'liqni saqlash Vazirligiga qarashli ilmiy tadqiqot institutlari ma'lumotlaridan foydalanildi hamda amaliyotda sinalgan va tasdiqlangan instruktsiya yo'riqnomasi, tavsiyanoma va qo'llanmalarga mos holda o'tkazildi

Quyi Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus*)ni o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari 2018-2024 yillar davomida turli mavsumlarda va turli yasash joylaridan, jumladan, Nukus tumani beda dalalarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining shipon (dacha) maydonida, Chimboy tumani Madaniyat shirkat xo'jaligi, O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi botanika bog'i uchastkasida, Beruniy va Amudaryo tumani hududida joylashgan Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida, Nukus shahri Sarancha (Jiydali Boysin) poselkasi Gulmurat shoir ko'chasida, Kegayli tumani markazidagi xiyobonda, Nukus tumani Rossiya fermer xo'jaligining sholi urug' omborida va boshda joylarda olib borildi (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar

Ishda umumqabul qilingan zoologik va ekologik tadqiqot usullari qo'llanildi. Kemiruvchilarning turini aniqlash ishlari N.A.Bobrinskiy, B.A.Kuznetsov, A.P.Kuzyakin (1965), B.A.Kuznetsov (1974), G.A.Asenov, A.J.Turekeeva, G.U.Utenova (2015), I.Ya.Pavlinov, O.L.Rossolimolarning (1987, 2006) aniqlagichlari bo'yicha olib borildi. Plastinka tishli kalamushning son hisobi to'qay ekosistemasida marshrutda uchragan qishloqlar, undagi biotsentri va kalamush soni bo'yicha, siyrak butazorlarda esa 0,25-0,5 maydonchalarda ushlangan kalamushlar soni bo'yicha hisobga olindi, har bir mavsumda (qishni hisobga olmaganda) ularni ushlashda siquvchi yog'och qopqon va №0, №1 temir qopqonlari foydalanildi, ushlangan kemiruvchilar belgilangan tartibda maxsus

xaltachalargasolinib har biriga yorliq (etiketka) yozib yopishtirildi hamda laboratoriyada tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Respublika O'lat Profilaktika Markazi Qoraqalpog'iston filiali laboratoriyasiga kelib tushgan materiallarni bakteriologik tadqiqotlar jarayonida 419 kalamushning ko'payishi, yoshi, jins tuzilmasi va morfologiyasi, fiziologiyasi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Dissetatsiyaning **“Quyida Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar bioekologiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobi uch bo'limni tashkil etadi. Birinchi “Plastinka tishli kalamushning bioekologik xususiyatlari” bo'limida Plastinka tishli kalamushning Qoraqalpog'iston hududida tarqalishi va sonining ko'pligi, ularning sevib is'temol qiladigan ozuqa o'simliklarining ko'pligidan va yer osti suvining yuqori-pastligiga bog'liq ekanligi asoslangan.

Plastinka tishli kalamush soni mavsum va yillar bo'yicha o'zgarib turadi. Bu jarayonning sababini tushuntirishga tadqiqotchilar hali ham bir fikrga kelmagan. Bazi olimlar uni suv toshqini sababli ko'plab yashash joylarining vayron bo'lganligi va turlarning nobud bo'lishi bilan tushintirsa, ba'zilar ularning yeb to'yimasligi sababli ozuqa o'simliklarini yeb tugatishi bilan izohlaydi.

Plastinka tishli kalamushning ko'payishini o'rganish ishlari ularni uchta yosh guruhiga bo'lip olib borildi: sut bilan ovqatlanuvchilar (*juvenis*); jinsiy voyaga yetmagan yoshdagilar ammo mustaqil ovqatlanuvchilar (*subadultus*); voyaga yetganlar (*adultus*).

Voyaga yetmaganlar guruhi hali mustaqil ovqatlanishga o'tmaganlar hisoblanib, inining og'zida, yoki ustida ushlanganlarining vazni 60 gr dan 112 gramgacha, tanasining uzunligi 120-158 mm gacha bo'ladi. Bu guruhdagi kalamushlarning junlari bir tekis shaffof ko'k rangda bo'ladi. Juda yoshlarining jun o'zagi bo'lmaydi, kattalarida u yoshiga bog'liq har xil darajada bo'ladi.

Mustaqil ovqatlanishga o'tgan guruhida birinchi guruhga qaraganda junlarining o'zagi bo'lib, tik turadi, rangi voyaga etganlarinikiga o'xshash keladi, biroq ulardan hali tulamagan yosh junlari alohidalanib turadi. Erkaklarining vazni o'rtacha -150, maksimal -174 gr, tanasining uzunligi o'rtacha 100, maksimum-193 mm. Urg'ochilarida vazni o'rtacha 156, maksimum-172 gr, tanasining uzunligi o'rtacha -168, maksimum-190 mm.

Voyaga yetganlari tanasining yirikligi, vaznining og'irligi bilan, junlarining eski yoki yangiligi bilan farq etadi. Erkaklarining vazni o'rtacha - 243, maksimum - 400 gr, tanasining uzunligi o'rtacha - 200, maksimum - 230 mm; urg'ochilarining vazni o'rtacha - 215, maksimum - 330 gr, tana uzunligi o'rtacha - 197, maksimum - 222 mm. Ushbu aniqlangan ma'lumotlar asosida urg'ochilarining vazni va tanasining uzunligi bo'yicha erkaklaridan kichikroq bo'ladi. Erkaklarining maksimal vazn to'plagan davri may oyiga to'g'ri keladi (1-jadval).

Jinsiy voyaga yetmagan (*subadultus*)larining yanvar oyida yuqori foizda bo'lishi, ularning noyabr-dekabr oylarida kuchli darajada ko'payganligidan darak beradi. Aprel va may oylarida *juvenal* yoshdagilarning ko'p bo'lishi, bu davrda kalamushlarning intensiv ko'payishidan va fevral-mart oylaridagilarning *subadultus* dan *adultus* yosh guruhiga o'tganligidan dalolat beradi.

Kalamushlarning yosh va jins tarkibining o'zgarishlari

Oylar	Jami o'rganilgan kalamush	Shundan yosh tarkibi %			Yosh tarkibining o'rtacha vazni Gramm					
		Juvenis	Subadultus	adultus	Juvenis		Subadultus		Adultus	
					erkagi	urg'ochisi	Erkagi	urg'ochisi	Erkagi	urg'ochisi
I	27	10.0	22.0	68.0	97	112	149	127	206	217
II	34	6.0	9.0	85.0	106	-	128	165	263	211
III	78	2.4	12.6	85.0	60	89	141	157	257	225
IV	56	14.0	6.0	80.0	73	66	-	141	220	190
V	66	14.0	4.6	81.4	70	71	174	193	283	236
VI	37	00	10.7	89.3	-	-	160	157	250	213
IX	24	8.3	4.1	87.6	74	68	161	-	258	217
X	32	6.2	9.3	84.5	76	82	136	119	265	235
XI	12	00	18.0	82.0	-	-	-	117	283	226
	366	8.0	10.0	82.0.	79,4	81,3	149,8	147	259,9	218,9

Ko'pchilik hollarda Plastinka tishli kalamush populyatsiyasidagi individlarning jinsiy nisbat miqdori 1:1 teng bo'lganini ko'ramiz (2-jadval).

Plastinka tishli kalamushning mavsumiy jins nisbatlari


Oylar	I	II	III	IV	V	VI	IX	X
Erkagi/urg'ochisi	1/1	1,5/1	1,5/1	1/1	1/1	1/1	1/1	1,4/1

Ushbu jadvaldan bizga ma'lumki voyaga yetgan erkaklarining ko'pchiligi fevral-mart oylarida, urg'ochilari esa oktyabr oylarida kuzatilganligini ko'ramiz.

Kalamushlar yil davomida intensiv ko'payadigan hayvon. Ayniqsa u yilning salqin va sovuq mavsumlarida intensiv darajada ko'payadi. Uning isboti sifatida kalamushlar populyatsiyasida *juvenis* va *subadultus* yoshdagi guruhlarining yuqori foizda uchrashini aytsak bo'ladi.

Tadqiq qilingan *subadultus* yosh guruhlarida faqat ikkita kalamushdan mart oylarida bo'g'oz individlar uchradi. Asosan ko'payish voyaga etgan kalamushlar hisobidan bo'lganligini ko'ramiz. Bitta bo'g'oz kalamushga to'g'ri keladigan o'rtacha embrion soni 1-6, ko'pincha 3-4 embriondan to'g'ri keladi. Uni quyidagi ebrion variatsion qatoridan ko'rishimizga bo'ladi (2-rasm).

Kalamushlar yil davomida intensiv ko'payadigan hayvon. Ayniqsa u yilning salqin va sovuq mavsumlarida intensiv darajada ko'payadi. Uning isboti sifatida kalamushlar populyatsiyasida *juvenis* va *subadultus* yoshdagi guruhlarining yuqori foizda uchrashini aytsak bo'ladi.



2-rasm. Plastinka tishli kalamushlarning embrionlar qatori

Tadqiq qilingan *subadultus* yosh guruhlarida faqat ikkita kalamushdan mart oylarida bo'g'oz individlar uchradi. Asosan ko'payish voyaga etgan kalamushlar hisobidan bo'lganligini ko'ramiz. Bitta bo'g'oz kalamushga to'g'ri keladigan o'rtacha embrion soni 1-6, ko'pincha 3-4 embriondan to'g'ri keladi. Uni quyidagi embrion variatsion qatoridan ko'rishimizga bo'ladi (3-jadval).

3-jadval

Plastinka tishli kalamushning Qoraqalpog'iston sharoitida nasldorlik miqdori (tadqiqot yillarida)

Embrion qatori	1	2	3	4	5	6	O'rtacha
Bo'g'oz kalamushlar soni	2	22	82	93	29	7	3,8
% hisobida	0,2	5,2	29,0	43,7	17,0	4,9	


Demak yuqoridagi jadvaldan ma'lumki jami aniqlangan (235 ta) bo'g'oz urg'ochi kalamushlarning Qoraqalpog'iston sharoitida nasldorlik miqdori o'rtacha 3,8 ga teng. Agar jami aniqlangan bo'g'oz urg'ochi kalamushlarni 100% deb olsak eng ko'p sonda 93 ta kalamushda 4 ta embriondan (43,7%), undan keyin esa 82 ta kalamushda 3 ta embriondan (29,0%), 29 ta kalamushda 5 ta embriondan (17,0%), 22 ta kalamushda 2 ta embriondan (5,2%), 7 ta kalamushda 6 ta embriondan (4,9%) va eng kam ya'ni bittadan embrioni mavjud vakillari faqat 2 ta (0,2%)ni tashkil qildi.

Plastinka tishli kalamushning ini tuzilishi bo'yicha juda murakkab. Ular murakkab ovqatlanish yo'lidan iborat. Har bitta inining yo'li yer osti bilan qamish ildizi bo'ylab qazilgan bo'ladi. Qalin qamishliklar ostidan kalamush anchagina keng ozuqa kamerasini kavlaydi, undan har tamonga qarab qazilgan in yo'llari ketadi. Inning ko'p sonli chiqish teshiklari in qazish jarayonida uning tuproqlarini tashqariga chiqarib tashlash xizmatini bajaradi.

Inidan chiqarilgan tuproq bo'lakchalarining balandligi ayrim joylarda 50 sm gacha yetadi, o'rtacha 20-30 sm balandlikda bo'ladi. Yer yuzasiga chiqarilgan tuproq

uyumlarining soni va hajmi bo‘yicha kalamushning qazish faoliyatiga baho berishga bo‘ladi (3-rasm).

Plastinka tishli kalamushning Amudaryoning quyi deltasida, to‘qaylik va voha zonasida uzliksiz ko‘payishi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Plastinka tishli kalamushning Amudaryo deltasida to‘qaylik va madaniy ekishlik zonasida ko‘payishi

Bu tur asosan o‘simlikning yer osti ildiz qismlari bilan ovqatlanib, yer usti o‘sovchi bo‘limi bilan esa juda siyrak, faqat ozuqa yetishmagan paytda foydalanadi. To‘qay atrofidagi qamishzorlik va yulg‘unzorliklarning suvga yaqin namli joylardagina ularning ildizlari bilan oziqlanadi. Ekishlik zonalarida oq terak, meva daraxtlarining, bedaning ildiz qismi, makkajo‘xorining, jo‘xorining ildizlarini yep quritadi.

“Uy sichqonining bioekologik xususiyatlari” bo‘limida 2018-2024 yillar davomida o‘tqazilgan kuzatish monitoringi natijasida uy sichqoni to‘qay biotoplaridagi mavsumiy soni bilan boshqa turlardan anchagina darajada ayrilip turishi, yuqori namlikka anchagina moslashganligi bilan ajralip turishi va shu kabi bir qator bioekologik holatlari batafsil yoritilgan.

Uy sichqoni to‘qay biotoplaridagi mavsumiy soni bilan boshqa turlardan anchagina darajada ayrilip turishi 4-rasmda keltiritgan.


Ushbu rasmda keltirilgan materiallardan uy sichqonining salqin tushishi bilan iliq joylarga, biotoplarga ko‘chib yashirinishi hisobidan son ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hududida uy sichqonining biotoplardagi mavsumiy son o'zgarishlari (100 ta yog'och qapqonda ushlangan bosh soni % hisobida).

Ularning ko'payish davridagi o'sishidan qat'iy nazar yozda (VII-VIII) sonining anchagina past bo'lishi ularning hudud bo'ylab keng tarqalib ketishidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar olib borgan 2018-2024 yillar davomida uy sichqonining Quyi Amudaryo deltasidagi son dinamikasi o'rganilganida ham biz yuqoridagi kabi har 3-4 yilda o'zgarishlar bo'lganligining guvohi bo'ldik. Ya'ni 2019-2021 yillarda son miqdori nisbatan kamroq, qolgan yillarda esa yuqoriroq son qayd qilindi(5-rasm).



5-rasm. Tadqiqot yillarida Quyi Amudaryo deltasida uy sichqoni son dinamikasi

“Kaspiy orti dala sichqonining yashash sharoiti va umumiy tarqalishi” bo‘limida Kaspiy orti dala sichqoni Quyi Amudaryo del’tasining daryo bo‘yidagi tarqalishi, hudud faunasida tutgan o‘rnini hisobga olgan holda tadqiqotlar olib borildi va mavjud adabiyotlarda berilgan materiallardan foydalangan holda izlanishlar va ayrim tahlily ma’lumotlar olindi. Jumladan, Biz tadqiq qilayotgan *Microtus transcaspicus* Quyi Amudaryo del’tasining daryo bo‘yidagi to‘rang‘il, tol, yovvoyi jiyda daraxtzorlari va aralash buta, yarim buta, qalin qamishzorlik hamda qo‘g‘a to‘qaylik biotoplari


tarqalgan kichik tur hisoblanadi. Bu turning taksonomik holati unchalik yaxshi o‘rganilmagan. Ushbu kichik turning tarqalishi, miqdori, ko‘payishi, morfologiyasi, ekologiyasi va biologiyasi bo‘yicha ma‘lumotlar tahlil etilgan.

Bizning 2018-2024 yillar davomida tadqiqot ishini olib borgan Baday, Bekbay, Cho‘rtanbay, Porlitov (Qozon ketgan) to‘qaylarida ham ko‘plap ushlangan uy sichqoni, Tamarisk qumsichqoni, tushki qumsichqon, Plastinka tishli kalamush va boshqada turlar qatorida *Microtus transcaspicus* kichik tur dala sichqoni faqatgina hozirgi biosfera rezervati hududidagina mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik.

Quyida Amudaryo davlat biosfera rezervatida 2020-2023 yillarda aniqlangan *Microtus transcaspicus* ning bioekologik jihatlari o‘rganildi.

Ilmiy tadqiqotlar har yilda bahor, yoz, kuz va qish mavsumlarida Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati “Boday to‘qay” va Jumurtov bo‘limlari hududida (1-8 aylanmalarda va ularning daryo bo‘yiga yaqin kvartallarida) kuzatish o‘tkazish rejimiga bog‘liq dala sharoitida qopqon-liniya usulida amalga oshirildi, dala tadqiqot ishlarida N.A. Bobrinskiy va boshq. (1965) hamda G.A. Novikovning (1953) manbasida keltirilgan usullardan foydalanildi.

Kaspiy orti dala sichqoni (*Microtus transcaspicus* Satunini)- to‘qayzorlarda, daryo bo‘ylarida, sholi maydonlari bo‘ylarida yashaydi (6-rasm). Qamish, qo‘g‘a kabi suv o‘simliklari barglari, poyasi, tuxumlari bilan oziqlanadi. Ko‘payishi aprel-may oylarida bo‘ladi. Har tuqqanida 1-7 bola tug‘adi.



6-rasm. *Microtus transcaspicus* ning jinsga bog‘liq holda son nisbati

Microtus transcaspicus ning jinsga bog‘liq holda son nisbati 2020 yilda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining turli kvartallarida, ya‘ni belgilangan marshrut bo‘ylab jami bosh soni 8 tani tashkil etdi. Bunda, jinsiy voyaga etgan erkak bir bosh, jinsiy voyaga etgan urg‘ochi 3 bosh, jinsiy voyaga etmagan, yosh individ bittani hamda jinsini aniqlash imkoni bo‘lmaganlar 3 bosh ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot yillari ichida eng kam sonda, ya‘ni 6 bosh 2021 yilda aniqlandi. Bunda faqatgina 3 bosh jinsiy voyaga etgan urg‘ochi va 3 bosh jinsiy voyaga etmagan, yosh individ.

2022 yilda nisbatan ko‘proq, yani 16 bosh, shundan jinsiy voyaga etgan erkak 2 bosh, jinsiy voyaga etgan urg‘ochi 3 bosh, jinsiy voyaga etmagan, yosh individ 3 bosh va jinsini aniqlash imkoni bo‘lmaganlar 8 ta.

2023 yilda esa, 11 bosh, shundan jinsiy voyaga etgan erkak bir bosh, jinsiy voyaga etgan urg‘ochi 4 bosh, jinsiy voyaga etmagan, yosh individ 2 bosh va jinsini aniqlash imkoni bo‘lmaganlar 4 tani tashkil qildi.

Bunda jinsini aniqlash imkoni bo‘lmaganlar kuzatishlar davomida rasmga olish yoki doimiy faol harakatda bo‘ladigan o‘rinlarga o‘rnatilgan fotoqapqondagi rasmlardagi sonlar asosida jadvalda keltirildi.

Dissertatsiyaning **“Sichqonsimon kemiruvchilarning ahamiyati va ularga qarshi zamonaviy kurash usullari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi to‘rtta bo‘limdan iborat. Ushbu bobning *“Nesokia indica, Mus musculus, Microtus transcaspicus* ning tabiat balansidagi va qishloq xo‘jaligidagi tutgan o‘rni” bo‘limida Qoraqalpog‘iston to‘qay va ekinzorlik ekosistemesi zonalarida uchraydigan vakillarining tabiat balansidagi va qishloq xo‘jaligidagi tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Quyida Amudaryo to‘qay va ekishlik zonasi ekosistemesi hududida kemiruvchilarning 13 turi ro‘yhatga olingan. Shuning ichida keng tarqalgani va ko‘p sonlilari uy sichqoni (*Mus musculus* Licht.), Plastinka tishli kalamush (*Nesokia indica* Gray), Tamarisk qumsichqoni (*Meriones tamariscinus*). Ularning har biri turli xil biotoplarda o‘zining son miqdor dominantligiga ega bo‘lganligi uchun tabiat balansida (biotsenozda) turli xil hayotiy ekvivalentligiga, son ko‘rsatkichlariga ega. Quyida Amudaryo to‘qay ekosistemesidagi o‘simlik va hayvonlarning biotsenozlardagi ulushi hamda bog‘liqliklarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ekologik nisha ko‘z oldimizga keladi.

“O‘rganilayotgan obyektlarning o‘ta xavfli, yuqumli kasalliklarni tarqatishdagi epizootologik-epidemiologik ahamiyati” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida olimlarning individlar va turlararo bog‘liqligida ektoparazitlar almashuviga katta epidemiologik ahamiyati haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilinadi.

Quyida Amudaryo del‘tasining to‘qay landshaft va biotoplar bilan qoplangan Qizilqum va Ustyurt o‘lat o‘chog‘idan ekishlik zonasi hududi orqali izolyatsiyalanganlikdan, u yerda tarqalgan kemiruvchilar faqat o‘sha hududda tarqalgan kemiruvchi turlari bilan zich aloqada bo‘ladi, cho‘lu biyobonda tarqalgan turlarning aloqasi esa anchagina darajada past kechadi.

Madaniy landshaft zonalarini ekosistemasining nozik ekologik sharoitini o‘rganish, kasallikning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish masalasini, ya‘ni kasallikning aholi punkt maydonigacha kirib kelishining ekologik mexanizmini o‘rganish, aholining tinch, sog‘lom hayot kechirishini ta‘minlash, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

“Kemiruvchilarga doir murakkab, muammoli masalalar va ularga qarshi kurashish usullarini takomillashtirish” deb nomlangan uchunchi bo‘limida kalamushga qarshi kurashish usullarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Bir juft kalamush tez ko‘payuvchanligi natijasida yiliga 16-18 boshga yetadi.

Respublika O'lat Profilaktika Markazi Qoraqalpog'iston filialiga respublika fuqarolaridan kelib tushgan arizalarda kalamushdan ko'rayotgan jabrlarida, keltirayotgan zararlarining xilma-xilligining o'zi ham kalamushning qanday zararkunanda ekanligining isboti hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Respublika Olat Profilaktika Markazi Qoraqalpog'iston filiali zoolog mutaxassislari zamonaviy, odamlar uchun bezarar har xil yangi ximikatlardan, ya'niy deratizatsiya usulini kengroq foydalanmaqda. Bromadiolan preparatini qo'llanib, natijada kemiruvchilarga uning tasiri urganildi. Bunda tadqiqotga olingan kemiruvchilardagi tasirini urganishga muvofiq bo'ldik.

Chimboy, Qorao'zak, Kegayli, Nukus, Qo'ng'iroq, Qonliko'l, Xojayli, Sho'manoy, Beruniy, Amudaryo tumanlaridan, Nukus, Taxiatosh shahar fuqarolaridan kelib tushgan arizalarda kalamushning keltirayotgan zarar turlarining xilma-xilligi haqida ma'lumotlar keltirgan.

XULOSALAR

“Quy i Amudaryo deltasida tarqalgan sichqonsimon kemiruvchilar (*Rodentia: Nesokia indica, Mus musculus, Microtus transcaspicus*) ning bioekologiyasi va ular bilan zamonaviy kurash usullari” mavzusidagi biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Quy i Amudaryo del'tasi to'qay va ekishlik zonasi Plastinka tishli kalamushning tarqalishi, joylashishi, soni bo'yicha 3 ta landshaftli-ekologik tipga ajratilgan. O'rta Osiyo daryo del'talarida tarqalgan 42 tur kemiruvchilarning 34 turi Amudaryo del'tasida ro'yhatga olingan. Ushbu zonalarda Quy i Amudaryo del'tasi uchun uy sichqoni va Plastinka tishli kalamushning dominant tur ekanligi aniqlangan.

2. Plastinka tishli kalamushning tarqalishi areali faqat del'ta va voha hududi bilan cheklanib, qumli cho'llarda uchramasligi, asosan qalin qamishzorlarda, del'ta atrofi to'qayzorlarida, ekin maydonlari hududlarida hamda uy va uy atrofi shaxsiy tomorqa dala maydonlarida katta, zich koloniya holidayashaydigan hamda ko'plab uchraydigan joylari chuqur o'rganib chiqildi.

3. Quy i Amudaryo del'tasi va ekishlik zonasida kalamushning qalin qamishzorlarda 45% va bosh soni gektariga 100-200 ni, del'ta atrofi to'qayzorlarda 12% va 6-15 boshni, ekishlik zonada bo'lsa umumiy ekishlik zonasining 5-10% va 10-20 boshni tashkil qilishi aniqlandi.

4. Kalamush yil davomida ko'payadi, u yilning salqin davrida intensiv o'tib, har tug'ganda 1-6 embrionnan 5-6 marta tug'adi.

5. Kalamush juda murakkab in qazib yashashiga bog'liq mollarga yem-xashak tayorlashda, bug'doy, beda dalalarida yig'im-terim davrida kombaynlarga katta to'siq keltirib chiqarishi, natijada yig'in o'rini bir tekis o'rilmadan, chala hosil yig'ish holatlar hamda kuchli in qazishi tufayli chorva mollar yaylovlariga ham anchagina zarar keltiradi.

6. Kalamushning turar joylarga, uy atrofi uchastkalariga kirib kelishi, ular bilan kurash olib borish muammosini keltirib chiqardi. Ularning zararini yo‘q qilishga, kamida zararini kamaytirishga asoslangan hozirgi kunda amaliyotda sinalgan, samarador 4 ta usul ishlab chiqilgan.

7. Uy sichqoni bilan kurash odatdagidek deratizatsiya usulida o‘tkaziladi. Tabiiy sharoitida erta bahorda hali o‘simliklarning ko‘klamagan, kuzgi o‘simliklarning urug‘i, shoxalari ham eskirip tugap, o‘simliklarning unumdorligi pasayib qolgan mavsumida sichqonlarning saqlangan biotoplarida o‘tkazish yuqori samara beradi. Bu davrda xarajat kam sarflanadi, yaxshi samara beradi yani dori darmon, moy, qo‘llaniladigan bug‘doy va ishni bajaruvchi odam kuchi ham kam ishlatiladi.

8. Kaspiy orti dala sichqonining Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hududida jami 41 bosh vakili tadqiq qilinib, jinsiy voyaga etgan ♂ 4 bosh, jinsiy voyaga etgan ♀ 13 bosh, jinsiy voyaga etmagan, yosh 6 bosh va jinsi noaniq 18 bosh aniqlanib ularning biologiyasi tahlil qilindi.

Amaliy tavsiyalar

Olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida sichqonsimon kemiruvchilar keltirib chiqaradigan zarariga qarshi kurash bo‘yicha quyidagicha tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mexanik - temir qaqpon bilan ushlab qirish – aholi turar joylarda, kichik uy atrofi uchastkalarida qo‘llaniladi;

2. Iniga, yashash joylariga suv quyish, suv yuborish - bug‘doy, beda dalalarini, bog‘larni tez-tez sug‘orish yo‘li bilan kalamushdan xalos bo‘lish mumkin;

3. Avtomashina, traktor, mototsikl va boshqada texnikalarning chiqaruvchi zaharli gazlarini glushitel’ga shlanga ulash yo‘li bilan iniga yo‘llab qirish - kichkina dalalarda, uylarda qo‘llanishga bo‘ladi;

4. Kimyoviy usul - barcha yerlarda qo‘llaniladi. Biroq natijasi past bo‘ladi. Sababi, kalamush inlariga qo‘yilgan aldamchi zaharlangan yemtik kalamushning in qazib chiqargan tuprog‘i bilan aralashib, ko‘milib qoladi. Agarda uni kalamushning markaziy ko‘p yuradigan inini topib, shunga qo‘yilsa, u yerda yuqori natijaga erishishga bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.20.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ПАЛУАНОВА ГУЛМИРА ЖОЛЫМБЕТОВНА

**БИОЭКОЛОГИЯ ГРЫЗУНОВ (Rodentia: *Nesokia indica*, *Mus musculus*,
Microtus transcaspicus), РАСПРОСТРАНЕННЫХ В НИЖНЕМ ТЕЧЕНИИ
ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ, И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ БОРЬБЫ С НИМИ**

03.00.06- Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/B982.

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet». (<http://www.ziyonet.uz>).

Научный руководитель:

Асенов Гаппар

доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хуррамов Алишер Шукурович

доктор биологических наук, профессор

Сейтиязаров Сулайман Кутлымуратович

кандидат биологических наук, доцент


Ведущая организация:

**Национальный педагогический университет
Узбекистана имени Низами**

Защита диссертации состоится «5» сентября 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.20.04 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-47, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №347). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-59-49.

Автореферат диссертации разослан «19» августа 2025 года.
(реестр протокола рассылки №5 от «19» августа 2025 года)



М.А.Жуманов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

М.К.Бегжанов

Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.б.н., доцент

Я.И.Аметов

Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Климатические изменения, происходящие сегодня во всем мире, ускорение опустынивания и интенсивное освоение природных ландшафтов оказывают существенное негативное влияние на биоразнообразие, в том числе на животный мир. Эта ситуация, особенно в последние годы, является одним из факторов, представляющих серьезную угрозу сельскохозяйственной продуктивности, лесному хозяйству и здоровью населения на антропогентрансформированных территориях, что приводит к резкому увеличению численности грызунов, в том числе представителей мышевидных млекопитающих. Поэтому инвентаризация мышевидных млекопитающих в регионах с сильным естественным и антропогенным давлением, определение формирования видового состава и адаптации их популяций к измененным искусственным экосистемам, а также совершенствование методов борьбы с ними имеет важное научно-практическое значение.

В целях сохранения здоровья населения и обеспечения его качественными продуктами питания во всем мире особое внимание уделяется резкому увеличению объемов выращивания экологически чистой сельскохозяйственной продукции во всех отраслях сельского хозяйства без ущерба для чистоты окружающей среды. В связи с этим был оценен масштаб воздействия грызунов, наносящих вред здоровью населения и сельскому хозяйству, и разработаны эффективные методы борьбы с ними. В последние годы под влиянием антропогенных факторов на сильно освоенных территориях наряду с сокращением ценных видов представителей териофауны следует особо отметить увеличение популяций вредных видов. Особенно в аридных регионах проявление представителей отряда грызунов (Rodentia) в качестве неотъемлемого компонента различных биотопов приводит к увеличению масштабов их экономического ущерба в агроландшафтах. Соответственно, определение видового состава мышевидных грызунов на сильно освоенных территориях, изучение их распространения в различных ландшафтах, обоснование их экологии, объяснение их значения и разработка научно обоснованных методов борьбы с ними имеет важное научно-практическое значение.

В нашей республике особое внимание уделяется сохранению целостности флоры и фауны, их рациональному использованию, пресечению безжалостной эксплуатации природы и защите населения от глобальных катастроф. В связи с этим, в частности, выявлена фауна млекопитающих, распространенных в различных ландшафтах, взяты под охрану ценные и редкие виды, разработана их кадастровая база данных и разработаны современные методы борьбы с основными вредными видами. В Стратегии развития нового Узбекистана¹ на 2022-2026 годы определены задачи «...Цель 79: Устранение существующих

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «В Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» // Собрание законодательства Республики Узбекистан.

